

INTERFAOL METOD- DARSNING JON TOMIRI

Rahmonova Shaxlo Rashidovna,
Toshkent Kimyo texnologiya instituti sirtqi bo'lim boshlig'i

Annotatsiya: *Avvalo dars jarayonini tashkil etilganda o'quvchining o'zaro faolligini oshadi, o'quvchida o'quv reja, dastur, darsliklar, standart me'yorlar asosida mavzu mazmunini o'zlashtirib olish malakalari shakllanadi, ta'lim mazmunini, matni, mashq masalalarini mutaola qilish, ishlash, o'zlashtirish ko'nikmalari o'qituvchini kundalik shaxsiy ishlariga aylanadi, ularni mas'uliyati oshadi. SHuningdek o'quvchi erkin fikr bildirishi, o'z shaxsiy fikrini himoya qilish, isbotlay olishga odatlanadi, eng muhimi o'quv jarayonida didaktik motivlar vujudga keladi. SHunday ekan maqolada ham pedagogik jarayonda onatili va adabiyot fanlarini o'qitishda yangi texnologiyalardan foydalanishning ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *metod, guruh, dars, adabiyot, ona tili*

Abstract: *First of all, the organization of the lesson process increases the interaction of students, the student develops the skills to master the content of the subject on the basis of curriculum, program, textbooks, standard norms, educational content, text, exercises the skills of reading, working, mastering the issues become the daily personal work of the teacher, increasing their responsibility. Students also become accustomed to expressing their opinions freely, to defending their own opinions, and, most importantly, to didactic motives in the learning process. Therefore, the article emphasizes the importance of the use of new technologies in the teaching of mother tongue and literature in the pedagogical process.*

Keywords: *method, group, lesson, literature, native language*

Аннотация: *Во-первых, организация учебного процесса увеличивает взаимодействие учащихся, учащийся развивает навыки усвоения содержания предмета на основе учебного плана, программы, учебников, нормативов, содержания обучения, текста, упражнений навыки чтения, работы, усвоения вопросов становятся повседневной личной работой учителя, повышая его ответственность. Студенты также привыкают свободно выражать свое мнение, отстаивать собственное мнение и, самое главное, к дидактическим мотивам в процессе обучения. Поэтому в статье подчеркивается важность использования новых технологий в обучении родному языку и литературе в педагогическом процессе.*

Ключевые слова: *метод, группа, урок, литература, родной язык.*

KIRISH

O'z navbatida darsni qiziqarli bo'lishiga olib keladi. Ya'ni bu jarayonda o'quvchini ehtiyoji, xohish, istaklari qondiriladi. Eng muhimi o'quv materialini to'la o'zlashtirish kafolatlanadi. o'qitish usullari ta'lim jarayonida turli xil ko'rinishlarda (yakka, juft, kichik guruh va katta guruhlarda) kechadi. Bunday tarzda tashkil etilgan darslarda o'quvchi ta'lim mazmunini o'zlashtiribgina qolmay, balki o'zining mehnat va tanqidiy fikrlarini ham rivojlantiradi. Boshlang'ich maktablarda interfaol pedagogik didaktik o'yinlar keng qo'llaniladi;

Ishchanlik o'yinlari darsi – dars mavzusi bo'yicha masalalarni o'rganishda o'quvchilarni oldindan ma'lum rollarni taqsimlash va dars jarayonida shu rolni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarini mustaxkamlash darsi. Teatrlashtirilgan dars – dars mavzusi bilan bog'liq sahna ko'rinishlari tashkil etish orqali dars mavzusi bo'yicha guruhga aniq ma'lumotlar berish darsi.

Kompyuter darsi – tegishli o'quv predmeti bo'yicha dars mavzusiga doir kompyuter materiallari, multimediya, sirtidan o'quv kursi va boshqalar vositasidagi o'tiladigan darslar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot jarayonida ob'ektivlik, mantiq, ilmiy bilimlarni tahlil qilish va sintez qilish usullaridan foydalanilgan. Ushbu tadqiqot davomida Bloom taksonomiyasining ahamiyati xolisona ochib berildi. Bugungi kunda innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda talabalarga Bloom taksonomiyasini o'rgatish bosqichlari mantiqiy ketma-ketlikda o'rganilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'qituvchilar jarayonning har bir bosqichida aniq o'quv maqsadlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan savollar berish va topshiriqlar berish orqali Bloom taksonomiyasini qo'llashlari mumkin, bu esa maqsadlarni talabaga tushunarli qilishdir. Masalan, ko'p tanlovli savollar berish talabani mavzuni asosiy tushunchasi va eslab qolish darajasini aniqlashga yordam beradi, shu bilan birga talabadan ariza yoki tahlil bosqichiga o'tishda taqqoslash yoki taqqoslash fikrlarini taklif qiladi. 1940-yillarda Benjamin Bloom o'zining hamkasblari Maks Englehart, Edvard Furst, Uolter Xill va Devid Kratvoxl bilan birgalikda ta'lim maqsadlarini aniq toifalarga ajratish uchun Bloom taksonomiyasini ishlab chiqdilar, chunki bu tasnif kollej o'quvchilarining faoliyatini yaxshiroq baholash uchun foydali bo'ladi. n Keyingi 16 yil davomida har yili Bloom va uning hamkasblari Amerika Psixologik Assotsiatsiyasi konvensiyasida ramkani qayta ko'rib chiqdilar va takomillashtirdilar. 1956 yilda ta'limning oltita buyrug'i orqali ma'lumot olish yo'lini ko'rsatadigan "Ta'lim maqsadlari taksonomiyasi" nomi bilan yakuniy versiyasi nashr etildi. "Qo'shma Shtatlarda va chet ellarda maktabni o'rganish bo'yicha qirq yillik intensiv

izlanishlardan so'ng, mening asosiy xulosam shu: dunyodagi har qanday odam nimani o'rganishi mumkin bo'lsa, deyarli barcha odamlar o'rganish uchun tegishli oldingi va hozirgi sharoitlar bilan ta'minlanishi mumkin." Asl taksonomiya o'sha paytdan beri ko'plab o'qitish falsafalarining asosi bo'lib xizmat qildi. Dastlab u o'quvchilarni baholashda yordam bergan bo'lsa-da, u tezda o'qituvchilar uchun o'quv dasturlarini ishlab chiqish, aniq o'quv maqsadlarini belgilash va sinf faoliyatini loyihalashtirish vositasi bo'ldi. U K-12 dan kollegacha va universitet darajasidagi sinflarda foydalanish uchun moslashtirilgan. Benjamin Bloom va uning bir qator tengdoshlari 1956 yilda kollej talabalarining faoliyatini yaxshiroq baholash uchun Bloom's Taxonomy-ni ishlab chiqdilar. Bloom taksonomiyasi o'quvchilar va o'qituvchilarni bilim olish bosqichida boshqarish uchun bir-biriga asoslangan oltita turli xil ta'lim darajalaridan iborat.

Kim oshdi savdosi darsi – elementlarini ayrim bo'shliqlari bo'yicha bilimlarni har bir o'quvchi qanchalik ko'p bilishini namoyish etish darsi. **Yarmarka darsi** – dars mavzusi bo'laklar bo'yicha oldindan o'zlashtirilar o'quvchilarning o'zaro muloqoti asosida sinfga qiziqarli ma'lumotlar berish orqali o'tiladigan dars.

Formulalar darsi – o'quvchilarning formulalarni puxta o'zlashtirishlari bo'yicha turli o'yinlar shaklida mashqlar o'tkazish darsi. o'yin darsi – dars mavzusiga mos o'yin orqali o'quvchilarning o'zlashtirilganliklarini tashkil qilish darsi.

“Sud” darsi – o'quvchilar bilan dars mavzusiga mos “sud” jarayonini tashkil etish orqali yangi mavzuni tushuntirish darsi. Konsert darsi – dars mavzusini sahnalashtirgan holdagi konsert shaklda ifodalash mashqlari bo'lib, o'quvchilarni faollashtirish va bilimlarini mustaxkamlash darsi. Bundan tashqari, debatlar o'z nuqtai nazarini asoslashda sinfdagi barcha o'quvchilar (yoki asosiy qismi)ning baxslashuvida faol ishtirok etishni ta'minlovchi o'qitish usulidir. Bu usuldan foydalanish tanqidiy tafakkurni rivojlantiradi. o'quvchilar o'z nuqtai nazarini ishlab chiqishi, uni taqdim etishi, himoya etishi, so'ngra raqib nuqtai nazarini rad etishi kerak. Bahs haqiqatni yuzaga keltirgani bois, o'qituvchi sinfni ikki guruhga bo'lgan holda munozarani avj oldiradi.

Rolli o'yinlar -o'qitishning bu usulida o'quvchilar “real hayot” holatlarini qayta joylashtiradilar. Bu ularga o'z amaliy ish faoliyatlarida qo'llash mumkin bo'lgan yangi turdagi faoliyatlarini sinab ko'rish va tekshirish imkonini beradi.

Bumerang -- Bu usul bir mashg'ulot davomida o'quv materialining chuqur va yaxlit holatda o'rganish, ijodiy tushunib etish. Bilimlarni erkin egallashga yo'naltirilgan. Bu turli mazmun iva harakterga ega bo'lgan mavzularni o'rganishga mo'lallangan bo'lib, o'z ichiga og'zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi.

Mashg'ulot davomida har bir ishtirokchining turli topshiriqlarni bajarishi, nisbat bilan o'quvchi yoki o'qituvchi rolda chiqishi mumkin. Ushbu texnologiyani qo'llash natijasida tanqidiy fikrlash, mantiqni shakllantirishga imkoniyat yaratadi; xotirani, g'oyalarni, fikrlarni, dalillarni yozma va og'zaki shakllarda bayon qilish ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Ijodiy o'yinlar: o'quvchilarning ijodiy izlanishi, mustaqilligi, mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda, qo'shimcha bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda ijodiy o'yinlar muhim rol o'ynaydi.

XULOSA

Ta'lim jarayonida vujudga keltirilgan muommali vaziyatlarni o'quvchilar guruhining o'zaro hamkorlikda avval o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarini ijodiy izlanishi va qo'llanishi orqali hal etishga zamin tayyorlaydigan didaktik o'yinlarni ijodiy o'yinlar deb atash lozim.

Mazkur didaktik o'yinli darslarda hamma o'quvchilar hamkorlikda ishlaydilar, avval o'zlashtirgan bilimlarini yangi vaziyatlarda qullab yangi bilimlarni egallaydilar. Bu esa o'quvchilarning o'z bilimlariga, iqtidoriga ishonch uyg'otadi va har bir o'quvchi sidqidildan hamma jiddiy tayyorgarlik muvaffaqiyat garovi ekanligini anglagan holda bilim olishga kirishadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Pedagogika. J.Hasanboev va boshqalar, "Noshir" Toshkent -2011.
2. Pedagogika tarixi. A.Zununnov va boshqalar. "SHarq" Toshkent -2000.
3. Pedagogika. M.X.To'xtaxodjaeva va boshqalar. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" Toshkent -2010.
4. Pedagogika tarixi. K.Hashimova, S.Nishonova, "Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi " Toshkent -2005.